

**“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI” DM HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.24.30.12.2019.GM.40.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“H.M. ABDULLAYEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA
INSTITUTI” DM**

SHUKUROV SHUHRAT RAYIMOVICH

**QORAQO‘TON KONINING GEOKIMYOVIY VA MINERALOGIK
XUSUSIYATLARI, QIMMATBAHO VA ULARGA YO‘LDOSH
ELEMENTLARNING UCHRASH SHAKLLARI**

**04.00.02 - Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi, ularni qidirish
va razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo**

**GEOLOGIYA-MINEROLOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Shukurov Shuhrat Rayimovich

“Qoraqo‘tan konining geokimyoviy va mineralogik xususiyatlari, qimmatbaho va ularga yo‘ldosh elementlarning uchrash shakllari”..... 3

Шукуров Шухрат Райимович

Геохимия и минералогические особенности, формы нахождения благородных и сопутствующих элементов месторождения Каракутан..... 21

Shukurov Shukhrat Rayimovich

Geochemistry and mineralogical features, forms of occurrence of precious and accompanying elements of the Karakutan deposit..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 44

**“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI” DM HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.24.30.12.2019.GM.40.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“H.M. ABDULLAYEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA
INSTITUTI” DM**

SHUKUROV SHUHRAT RAYIMOVICH

**QORAQO‘TON KONINING GEOKIMYOVIY VA MINERALOGIK
XUSUSIYATLARI, QIMMATBAHO VA ULARGA YO‘LDOSH
ELEMENTLARNING UCHRASH SHAKLLARI**

**04.00.02 - Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi, ularni qidirish
va razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo**

**GEOLOGIYA-MINEROLOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PHD/GM194 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi “H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti” Davlat muassasasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.mridm.uz) va “ZiyoNet” axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sadikova Lola Renatovna
geologiya-minerologiya fanlari doktori

Rasmiy opponentlar:

Karabayev Mamatxon Sadirovich
geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

Umarov Akromiddin Zayniddinovich
geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ

Dissertatsiya himoyasi “Mineral resurslar instituti” DM huzuridagi DSc. 24.30.12.2019.GM.40.01. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “7” 05 soat 14³⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko‘chasi, 64-uy. Tel.: (71) 209-08-93, e-mail: info@mridm.uz, gpniimr@exat.uz).

Dissertatsiya bilan “Mineral resurslar instituti” DMining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (3488 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko‘chasi, 64-uy. Tel.: (71) 209-08-93).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “22” 04 kuni tarqatildi.
(2025-yil “01” 04 dagi 21 raqamli reestr bayonnomasi)



M.U. Isoqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, g.-m.f.d.

S.S. Sayitov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.-m.f.f.d. (PhD)

M.M. Pirnazarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi g.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida oltin va boshqa turdagi konlarning geokimyoviy va mineralogik xususiyatlarini o‘rganish dolzarbligicha qolmoqda. Oltin, kumush va ular bilan birga keluvchi qimmatli elementlarning uchrash shakllarini aniqlash, mineralogik va geokimyoviy xususiyatlarini o‘rganishga katta e’tibor berilmoqda, bu esa, yashirin minerallashuvni bashorat qilish va hududlarning qimmatbaho metallarga istiqbollarini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida konlarning mineralogik-geokimyoviy xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, ma‘danlashuvni qidirish va bashoratlashning ilmiy asoslangan mezonlarini ishlab chiqishda, ularning istiqbollarini baholashda ma‘danlarning mineralogik va geokimyoviy xossalari, ular tarkibidagi turli xil foydali birikmalarning namoyon bo‘lish shakllarini o‘rganish ijobiy natijalar olish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda turli genetik tipdagi oltin ma‘danli va boshqa konlarda oltin, kumush va ular bilan birga keluvchi qimmatli elementlarning geokimyoviy, mineralogik xususiyatlari va uchrash shakllarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikada oltin, kumush va boshqa qimmatbaho elementlarning yangi istiqbolli konlarini bashorat qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, keyingi yillarda olib borilgan izlanishlar natijasida bir qancha qimmatbaho metallar konlari aniqlangan. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «.....iqtisodiyot uchun zarur mineral xom ashyo bazasini kengaytirish.....»¹ vazifalari belgilab berilgan. Bularning barchasi Zirabuloq-Ziyovuddin hududida joylashgan Qoraqo‘ton konidagi qimmatbaho va birga keluvchi elementlarning mineralogik va geokimyoviy xususiyatlari, uchrash shakllarini aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishning maqsadga muvofiqligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonida, 2018-yil 1-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3578-son, 2021-yil 21-apreldagi “Geologiya sohaga investitsiyalarni faol jalb etish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va respublika mineral xomashyo bazasini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5083-son va 2022-yil 3-avgustdagi “Mahalliy mineral xomashyo resurslari asosida yuqori texnologik metallar ishlab chiqarishni tashkillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-343-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF – 60-son Farmoni.

rivojlantirishning VII – “Yer to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash)” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Zirabuloq-Ziyovuddin hududida joylashgan Qoraqo‘ton ma‘dan maydonining geologik tuzilishi va stratigrafiyasi, tektonikasi, metallogeniyasi ko‘plab tadqiqotchilar, shu jumladan: A.S. Adelunga, V.D. Chexovich, K.V. Stukova, A.P. Xolopov, N.D. Zelenko, M.G. Kalabinoy, E.B. Bertman, V.G. Moiseenko, G.V. Gorev, I.T. Cheban, T.E. Vidusov, V.S. Korsakov, I.V. Mushkin, V.L. Shadrin, A.X. Turesebekov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

O‘tgan yillardagi tadqiqotlar Qoraqo‘ton konining chuqurlikdagi istiqbollari bashoratlash, oltin ma‘danlashuvining joylashish qonuniyatlari va mineralogik-geokimyoviy xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, qazib olish ishlari natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish orqali oltin resurslarini baholashga qaratilgan edi.

Hozirgi vaqtda birlamchi ma‘danlar va ularni qayta ishlash mahsulotlarining moddiy tarkibi, ularda oltin, kumush va boshqa qimmatli elementlarning uchrash shakllari, oltinni qazib olish jarayonida ularni yo‘qotilishi sabablarini aniqlash bilan bog‘liq bir qator hal etilmagan muammolar mavjud. Tadqiqot natijalari Qoraqo‘ton konidagi ma‘danlarni qayta ishlashda oltin qazib olish texnologiyasini takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti “Geologiya va geofizika instituti” davlat muassasasi ilmiy-tadqiqot rejasining FA-A13-T126-sonli “O‘zbekiston qora slanets hosil bo‘lgan oltin konlari qiyin boyitiluvchi oltin ma‘danlari va chiqindilardan qimmatbaho metallarni ajratib olishning texnologik reglamentini ishlab chiqish Dovgiz, Ko‘kpatas konlari va boshqalar misolida)” (2015-2017) va 3/2020-sonli “Qoraqo‘ton koni oltin ma‘danlarining va ularni texnologik qayta ishlash mahsulotlarining moddiy tarkibini, oltin va birga keluvchi elementlarning uchrash shakllarini mufassal o‘rganish” (2020-2021) amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqo‘ton konining ma‘danlari va ularni texnologik qayta ishlash mahsulotlarining moddiy tarkibini (kimyoviy va mineral) mufassal o‘rganish, oltin, kumush va ular bilan birga keluvchi boshqa elementlarning uchrash shakllari, xomashyoning qiyin boyitilish omillarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Qoraqo‘ton koni ma‘danlarida oltin, kumush va boshqa yo‘ldosh elementlarni tarqalishining geokimyoviy xususiyatlarini aniqlash;

Qoraqo‘ton oltin-kumush konining mineralogik xususiyatlarini, turli xil tipdagi ma‘danlarning zonalligini aniqlash;

birlamchi gipogen va gipergen ma‘danlarda oltin, kumush va boshqa birga keluvchi qimmatbaho elementlarning uchrash shakllarini aniqlash;

Qoraqo‘ton oltin-kumush konining birlamchi ma‘danlari qiyin boyitilish omillarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqo‘ton oltin-kumush koni ma‘dan tanalari va Navoiy kon-metallurgiya kombinati hududida joylashgan ma‘dan tanalari chiqindilari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti birlamchi, gipergen, ikkilamchi sulfidli boyigan ma‘danlar va ularni qayta ishlash mahsulotlarining mineral, kimyoviy tarkibi, qimmatbaho va boshqa ular bilan birga keluvchi elementlarning uchrash shakllari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda zamonaviy usullar, jumladan, kompleks dala kuzatuv ishlari (geologik marshrutlar, mineralogik va geokimyoviy namunalar olish, geologik hujjatlashtirish), zamonaviy yuqori aniqlikdagi analitik tadqiqotlar (mass-spektrometr (ICP-MS), optik-emission tahlil (OES), rentgenfazali tahlil, mikrozon (Jeol), skanerlovchi elektron mikroskopda (SEM), og‘ir fraksiyalarning mineralogik tahlili qo‘llanilgan. Laboratoriya tahlillari asosida olingan ma‘lumotlarni statistik qayta ishlash, tadqiqot natijalarini qiyosiy tahlil qilish usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qoraqo‘ton koni ma‘dan tanalarida oltin-kumush ma‘danlashuviga mahsuldor ikkita: erta Fe-Au-As-S va kechki Sb-Ag-Cu-Zn-Pb geokimyoviy assotsiatsiyalar mavjudligi aniqlangan;

Ma‘danlarning moddiy tarkib bo‘yicha turlari ajratilib, ularning fazoda tarqalish qonuniyatlari, zonalliklari va ma‘danlashuvga mahsuldor mineral assotsiatsiyalar aniqlangan;

Qoraqo‘ton oltin-kumush konining geokimyoviy va mineralogik xususiyatlari, qimmatbaho va birga keluvchi Pt, Sn, W, Se, Te, Hg, kamyob yer elementlarning uchrash shakllari aniqlangan;

Qoraqo‘ton koni ma‘danlarining texnologik xossalari va reglamenti ishlab chiqilib, oltinni ajratib olishning eng samarali sxemasi - bu xlorli kuydirish va hosil bo‘lgan shlakni keyingi sorbsion siyanidlash bilan qayta ishlash ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotlarning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot maydoni ma‘danlarining geokimyoviy xususiyatlari asosida qidiruv ishlarida muhim hisoblangan elementlar to‘planishining Au-Te-As-Se-Bi-Zn-Sb-Ag konsentratsiya qatori o‘rnatilgan;

Qoraqo‘ton koni ma‘danlari uchun genetik turi va moddiy tarkibiga bog‘liq holda ma‘danlarning gipergen, supergen va gipogen zonalarini ajratilgan;

Ma‘danlarda qimmatbaho metallarning uchrash shakllari oltin uchun sof tug‘ma oltin, ferroaurid va arsenoaurid bilan, kumush sof tug‘ma kumush, kumush sulfidlari (argentit, akantit), kumush antimonidlari (freybergit, ramdorit, polibazit, nakaseit, tetraedrit, stefanit) bilan namoyon bo‘lganligi qayd etilgan.

Har xil turdagi ma‘danlarni va ularning chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasi bo‘yicha tavsiyalar ichlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. “O‘zdavstandart” tomonidan sertifikatlangan laboratoriya tahlillariga asoslanganligi bilan izohlanadi. Jumladan: dala ishlari jarayonida minerallashtirilgan zona va mufassal geologik kuzatuv nuqtalaridan olingan 101 ta namunalar bo‘yicha ICP

MS-masspektrometrik, optik-emission, probir, skanerlovchi elektron mikroskop tahlillar o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'rganilayotgan hududning ma'danlashuv shakllanish sharoitlarini aniqlash uchun gipogen va giperjen ma'danli minerallar, qimmatbaho metallar minerallarining tarkibini, ma'danlarning mineral tarkibini aniqlash, qimmatli elementlarning uchrash shakllari haqidagi ma'lumotlarni o'rganishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oltin, kumush va boshqa qimmatli birga keluvchi elementlarning mineral assotsiatsiyalari tahlil qilinganligi bilan izohlanadi, bu ma'danlarni mineralogik va texnologik turlashtirishni amalga oshirish va ulardan qimmatbaho metallarni ajratib olishning samarali texnologiyasini taklif qilish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqo'ton ma'dan maydonining mineralogik va geokimyoviy tadqiqotlari natijasida olingan ilmiy natijalar asosida:

Qoraqo'ton konining ma'danlari moddiy tarkibi, oltin, kumush va boshqa birga keluvchi elementlarning uchrash shakllarini mufassal o'rganish natijalari "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ amaliyotiga joriy qilingan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 3-oktyabrdagi 08-3676-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar qimmatbaho metallarga ma'danlashuvning asosiy mineral va geokimyoviy assotsiatsiyalarini ajratish va geologik qidiruv ishlarining keyingi yo'nalishlarini aniqlash imkonini bergan.

Qoraqo'ton konining mineralogik va geokimyoviy tizimlarining xususiyatlari "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ amaliyotiga joriy qilingan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 3-oktyabrdagi 08-3676-son ma'lumotnomasi). Natijalar, konda oltin-kumush ma'danlashuviga mahsuldor ikkita erta: Fe-Au-As-S va kechki Sb-Ag-Cu-Zn-Pb geokimyoviy assotsiatsiyalarni ajratish va konni oltin-kumushli genetik kon turiga kiritish imkonini bergan.

har xil turdagi ma'danlarni va ularni texnologik qayta ishlash mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi, oltin, kumush va boshqa qimmatli elementlar: Pt, Sn, W, Se, Te, Hg va kamyob yer elementlarining uchrash shakllari bo'yicha tavsiyalar "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ amaliyotiga joriy qilingan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 3-oktyabrdagi 08-3676-son ma'lumotnomasi). Natijada, yuqorida qayd etilgan qimmatli elementlarni qayta ishlash texnologiyasini yaratish bo'yicha harakatlar rejalashtirilgan. Oltinni ajratishning eng samarali sxemasi - bu xlorli kuydirish va hosil bo'lgan shlakni keyingi sorbsion siyanidlash bilan qayta ishlash bo'lib, bu orqali oltin ajralishi 95,3% oshirilgan;

Qoraqo'ton koni ma'danlarining mineralogik xususiyatlari va turli xil genetik turdagi ma'danlarni zonalligi ma'lumotlari "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ amaliyotiga joriy qilingan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 3-oktyabrdagi 08-3676-son ma'lumotnomasi). Natijada, birinchi marta Qoraqo'ton oltin-kumush koni ma'danlari uchun har xil genetik

turdagi gipergen, supergen va gipogen ma'danlashuv zonalliklari ajratilib, Qoraqo'ton konining chuqur hosildor gorizontlari uchun bashorat qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shu jumladan, 5 ta respublikada va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 131 bet, 58 ta jadval, 30 ta rasmdan iborat.

DISSERTASINING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va talabgorligi asoslandi, maqsad va vazifalari yoritilgan, tadqiqot ob'ekti va predmeti ko'rsatildi, ishning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ko'rsatildi, olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati hamda ularni amaliyotga tatbiq etish keltirildi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumot berildi.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Qoraqo'ton ma'dan maydonining geologik tuzilishi va o'rganilish sharhi”**. Qoraqo'ton koni Ziyovuddin tog'larida joylashgan. Zirabuloq-Ziyovuddin tog'-konchilik rayonida keng ko'lamlil geologik qidiruv ishlari 1941-yilda Ingichka volfram koni ochilgandan so'ng boshlangan.

1944-1948 yillarda geologlar: A.S. Adelunga, V.D. Chexovich, G.F. Tetyuxina, K.N. Vendland, A.M. Sokolova, S.M. Zayants, N.D. Zlenko, M.G. Kalabina ishtirokida butun Zirabuloq-Ziyovuddin hududining 1:50000 miqyosidagi geologik suratga olish ishlari o'tkazildi.

2001-2002 yillarda V.L. Shadrin va boshqalar Qoraqo'ton ma'dan konida qazib olish ishlari natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish bilan prognoz qilingan oltin resurslarini baholash bilan shug'ullangan (Shadrin va boshqalar, 2002). Barcha konlar va ma'dan tanalari Qatarmay antiklinalining shimoliy qanoti ichida ko'p yo'nalishli yoriqlar bilan bloklarga bo'lingan subkenglik bo'ylab tik cho'kuvchi Qoraqo'ton yoriqlar zonasida joylashganligi yana bir bor tasdiqlandi.

Vulkanogen hosilalarni turlarga ajratish bo'yicha tematik ishlar olib borgan A.A. Kustarnikova, T.N. Dalimov, I.V. Mushkin, V.S. Korsakov, V.V. Mixaylov, L.V. Shpotova, V.N. Ushakov, F.K. Divayev va boshqalar, metamorfizm bo'yicha A.V. Pokrovskiy, V.A. Xoxlov, I.M. Mirxodjiyev, ma'danlarning mineralogik-geokimyoviy xususiyatlari va ma'danlarning tipomorfizmini o'rganish bo'yicha R.P. Badalova, V.D. Soy, M.M. Pirnazarov, Sh.P. Alimov, E.B. Bertman, S.T. Badalov, A.P. Turesebekov va boshqalar, ma'danli maydonlarning strukturalari bo'yicha A.V. Korolev va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, yaqinda aniqlangan ma'dan zonalaridagi ma'danlarning moddiy tarkibi va texnologik xususiyatlarini aniqlashga e'tibor qaratish lozim, xususan, Qoraqo'ton konidagi Qatarmay qatlaminin ikkinchi subformatsiyasining tarqalish maydonlari.

Qoraqo'ton ma'dan maydonining geologik tuzilishi. Qoraqo'ton (Ziyovuddin ma'dan maydoni) Ziyovuddin tog'larida joylashgan. 1963-yilda Qoraqo'ton oltin koni ochilgandan so'ng Qoraqo'ton ma'dan maydonida hozirgi kunga qadar 100 dan ortiq ma'dan tanalari topilgan bo'lib, ular qazib olishga tayyorlangan, ularning ko'pchiligi qayta ishlangan yoki qayta ishlanmoqda.

Ma'danli maydonning geologik tuzilishida metakarbonat-vulqonogen-kremniyli katarmay svitasi ϵ -S kt, vulkanogen-terrigen bulyamush svitasi O-S (?) bl, karbonatli Qizbibi svitasi D_{1-2} kb va vulkanogen djilandin svitasi D_1 (?) dż bevosita ishtirok etadi.

Litologik xususiyatlariga ko'ra ular o'zaro asta-sekin o'tuvchi 3 ta kichik svitalarga bo'linadi (V.S. Korsakov va boshqalar).

Birinchi kichik svita (terrigen-vulkanogen, ϵ -S kt_1) terrigen-vulkanogen jinslardan iborat bo'lib, qatlamlari bazalt tarkibli aglomerat tuflaridan tashkil topgan.

Birinchi kichik svita (terrigen-vulkanogen, ϵ -S kt_1) terrigen-vulkanogen jinslardan iborat bo'lib, slyuda-dalashpati-kvarsli slaneslar, marmarlar, dolomitlar, ohaktoshlar va kremniyli jinslarning qatlamlari va linzalari bilan bazalt tarkibli aglomerat tuflaridan tashkil topgan. Qo'shimcha svitaning qalinligi 600 m dan ortiq.

Ikkinchi kichik svita (karbonat-terrigen, ϵ -S kt_2) metabazitlar, karbonatli jinslar va kvarsitlar qatlamlari to'q kulrang kristalli slaneslardan tashkil topgan. Tog' jinslari kvarslashgan bo'lib, bu qatlamlar bo'ylab yo'nalgan kvars tolalari va uylarining rivojlanishida namoyon bo'ladi. Kvarsitlar va karbonatli jinslar (mramorlashgan dolomitlar va ohaktoshlar) qatlamlarining qalinligi 0,1 dan 20,0 m gacha bo'lib, uzunligi bir necha o'nlab va yuzlab metrni tashkil etadi. Metabazitlar miqdori birinchi kichik svitaga nisbatan sezilarli darajada kamayadi. Qism svitaning umumiy ko'rinadigan qalinligi 500 m dan ortiq.

Uchinchi kichik svita (vulkanogen-terrigen, ϵ -S kt_3) jinslar to'plami bo'yicha eng xilma-xildir. Svita osti qatlamlari almashinuvchi, notekis metamorflashgan slyuda-dalashpati-kvarsli, slyuda-kvars-dalashpatili, dalashpati-kvars-slyudali, alevrolit-gilli, glaukofanli slaneslar, fillitlar, dolomitlar, ohaktoshlar, qumtoshlar, gravelitlar, konglomeratlarning qatlamlari va linzalari bilan birga qalinligi 200 m gacha va uzunligi dastlabki yuz metr dan 10 km gacha yetadi hamda bu o'z navbatida bazalt, olivin-bazalt tarkibli ko'p sonli qatlamlar va tuflar, aglomerat tuflar linzalaridan tashkil topgan. Kichik svita uchun oltin oreollarining sezilarli darajada tarqalishi, asosan, Qoraqo'ton chuqur yoriq zonasi ta'siri doirasida xarakterli bo'lib, bu yerda sanoat miqyosida ma'danlashuvga ega bo'lgan oltin ma'danli tanalarning aksariyati joylashgan (Qoraqo'ton, Beshquduq, Qopqoqli konlari, 5, 9, 11, 25 ma'danli tanalar va boshqalar).

Bulyamush svitasi O-S (?) bl slyudali, kremniyli, fillitli slanetslar, metaqumtoshlari, metalevrolitlar, kvartsitlar, gravelitlar bilan ifodalangan bo‘lib, u V.V. Mixaylov tomonidan devonning yuqori katarma svitasi tarkibidan ajratilgan. Jalandin svitasi D₁ (?) dž. V.V. Mixaylov va F.K. Divayev tomonidan tavsiflangan va katarmay svitasi tarkibidan ankaramit-traxibazalt formatsiyasi sifatida ajratilgan.

Qizbibi svitasi - D₁₋₂ kb. Svitaning karbonatli jinslari turli masshtabli tektonik bloklar va paketlar bo‘lib, ular Katarmay va Jilandi svitalari jinslariga kiritilgan (M 1:500 000, 2023 yilgi geologik xaritalar atlas bo‘yicha).

Intruziv hosilalar Zirabuloq-Ziyovuddin gabbro-giperbazit kompleksi (σЄ-D_{2z}) va yuqori-karbon quyi-perm (S₃-R₁) yoshidagi Qoraqo‘ton daykali kompleksidan iborat.

Qoraqo‘ton koni o‘zining morfologik xususiyatlariga ko‘ra yoriq-tomirli morfologik turga kiritilgan, chunki unga turli yo‘nalishdagi tektonik elementlarning kesishgan yoki tutashgan joylarida hosil bo‘lgan kvars tanalari xosdir.

“Qoraqo‘ton oltin-kumush koni ma‘danlarida oltin, kumush va boshqa ular bilan birga keluvchi qimmatli elementlarning geokimyoviy tarqalish xususiyati” nomli ikkinchi bobida ma‘dan tanalarini geologik va geokimyoviy xaritalash keltirilgan. Geologik va geokimyoviy xaritalash usuli 51, 25, 5, 112, 71, 17, 8 ma‘dan tanalari uchun karyerlar, burg‘u quduqlari, shaxtalar bo‘yicha va 8, 51, 71-ma‘dan tanalari chiqindilari namunalar olish profillarini tuzishdan iborat edi. Ma‘dan tanalaridan geologik va geokimyoviy namunalarini olish natijasida Qoraqo‘ton oltin-kumush konining geokimyoviy xaritalashning kontakt zonalarini ma‘dan tanalari va kontakt qismidan 101 ta namuna olindi. Har bir tanlangan namunaning koordinatalari xaritaga tushurildi va ko‘ndalang kesmalar tuzilgan. Ushbu namunalar orasidan batafsil tadqiqotlar uchun eng ma‘lumotdorlari tanlangan va o‘rganilgan.

Qoraqo‘ton oltin-kumush konining asosiy tog‘ jinslari va ma‘danlari matritsasining geokimyoviy xususiyatlari analitik usullar yordamida o‘rganildi: sochma usuli bilan yarim miqdoriy spektral tahlil; oltin va kumush uchun probir tahlillari, mass-spektrometrik tahlil (ICP-MS) “Markaziy laboratoriya” davlat korxonasida amalga oshirilgan.


Analitik tadqiqotlar natijasida olingan natijalar oltin-kumush minerallashuviga ega bo‘lgan qamrovchi tog‘ jinslar va ma‘dan tanalar tarkibining geokimyoviy xususiyatlarini to‘liq ochib berishga imkon berdi.

Oltin-kumush minerallashuvida qamrovchi tog‘ jinslar matritsasining geokimyoviy tizimi silikat-alyumosilikat-ferrioksid-karbonat elementlar assotsiatsiyasi bilan namoyon bo‘ladi. Oltinning probir tahliliga ko‘ra miqdori (g/t) 4,9 dan 7,6 gacha, o‘rtacha 6,8 g/t, kumush (3,46-19,9) o‘rtacha 14,2 g/t. Oltin miqdori ICP-masspektrometrik tahliliga ko‘ra o‘rtacha 8,32 g/t, kumush 4,4 g/t. Tahlil natijalariga ko‘ra, kumush oltindan 3 baravar ustundir. Oltin va kumush bilan chambarchas bog‘liq holda elementlarning ma‘dan hosil qiluvchi geokimyoviy mahsuldor assotsiatsiyalari mavjud (g/t): As (342), Sb (93,0), Pb (780), Zn (240), Cu (42,5) va ular bilan bog‘liq. yuqori klark elementlari (K_k):

Au (1934.9), As (201.2), Se (146), Te (540), Sb (186), Bi (355.6), Ag (62.86), W (11), Cd (10.23) (1-rasm). Noyob yer elementlarining o'rtacha miqdori (113 g/t). Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, 5-ma'dan tanasi geterogen, juda murakkab mineralogik va geokimyoviy tizimdir.

51, 5, 25, 71, 112, 8, 17 ma'dan tanalarining umumiy geokimyoviy tavsiflari. Bu assotsiatsiya oltin-kumush minerallashuvini o'z ichiga olgan matritsaning geokimyoviy tizimini ifodalaydi yoki silikat-alyumosilikat-ferrioksid-karbonatli mineral tizimi hisoblanadi. Probir tahliliga ko'ra, barcha ma'dan tanalarida oltin miqdori (g/t) < 0,2 dan 6,8 gacha, o'rtacha 2,2, kumush < 5 dan 16,8 gacha, o'rtacha 6,9 g/t gacha (1-jadval). Mass-spektrometrik tahlilga ko'ra, 51 ma'dan tanasida oltin miqdori 1 dan 5 g/t gacha o'zgarib, o'rtacha miqdori 1,5 g/t.

Ushbu ma'dan hosil qiluvchi elementlardan tashqari, yuqoriroq klark miqdorida quyidagilar mavjud (g/t da): 1) xalkofil elementlar - Ag (54), As (115), Se (134), Te (316), Bi (117) Sb (58), Pb (14,7) Cd (3,8); 2) siderofil elementlar - Au (510), Re (16), Pt (10); 3) litofil elementlar - W (5,52), Hf (3,0) marta ko'p.



1-rasm. Qoraqo'tan oltin-kumush konining ma'dan tanalari va chiqindilaridagi xalkofil elementlarning o'rtacha miqdorining diagrammasi, g/t.

1-jadval

Qoraqo'ton oltin-kumush koni ma'danlari tarkibidagi oltin va kumushning probir tahlili va mass spektrometrik tahlillari bo'yicha miqdori

| Ruda jismlari | Tahlil (g/t) | | ICP-MS (g/t) | |
|---|--------------|------------|--------------|------------|
| | Au | Ag | Au | Ag |
| 51-sonli ma'dan tanasi, namunalar (9) | 5,7 | 16,8 | 1,26 | 14,0 |
| 25-sonli ma'dan tanasi, namunalar (7) | 6,8 | 14,2 | 8,32 | 4,4 |
| 5-sonli ma'dan tanasi, namunalar (11) | 0,9 | <5,0 | 0,08 | 0,77 |
| 112-sonli ma'dan tanasi, namunalar (15) | 0,8 | <5,0 | 0,5 | 1,4 |
| 71-sonli ma'dan tanasi, namunalar (10) | 0,7 | <5,0 | 0,55 | 2,0 |
| 8-sonli ma'dan tanasi, namunalar (10) | 0,6 | <5,0 | 0,61 | 0,78 |
| 17-sonli ma'dan tanasi, namunalar (39) | 0,9 | <5,0 | <0,05 | 0,85 |
| Namuna bo'laklari (12) | 0,4 | <5,0 | 0,15 | 0,57 |
| Ma'dan tanalari bo'yicha o'rtacha miqdor | 1,9 | 6,9 | 1,5 | 3,5 |

Eslatma: Qavslar ichida tahlil qilingan namunalar soni ko'rsatilgan.

Olingan analitik tadqiqotlar natijalari oltin-kumush minerallashuvi bo'lgan qamrovchi tog' jinslar va ma'dan tanalari tarkibining geokimyoviy taqsimotini to'liq ochib berishga imkon berdi:

1. Qoraqo'ton oltin-kumush konining shakllanishida elementlarning ikkita geokimyoviy assotsiatsiyasi ishtirok etadi: erta Au-As-S-Sb va kech qo'shilgan Ag-Cu-Zn-Pb, bu yerda kumush oltindan o'rtacha 3:1 qiymatida ustunlik qiladi.


2. Ma'dan tanalarida oltin va kumushdan tashqari, elementlarning to'planish darajasining tegishli geokimyoviy qatorini tashkil etuvchi birga keluvchi elementlarning konsentratsiyasining sezilarli darajalari bilan tavsiflanib (Au-Te-As-Se-Bi-Zn-Sb-Ag), bu ularning tadqiqot sohasida qidiruv ishlarida muhimligini ko'rsatadi.

3. Oltin bilan yuqori korrelyatsiya koeffitsientiga ega bo'lgan alohida elementlar vismut, surma, rux, nikel va kadmiy, kumush bilan esa margimush, selen va volfram chambarchas bog'liqligi aniqlandi. Oltin, kumush, margimush va selening aniqlangan korrelyatsiyasi va yuqori konsentratsiyasi qidirishning geokimyoviy mezonidir.


“Qoraqo‘ton oltin-kumush koni ma‘danlarining mineralogik xususiyatlari va zonalligi” nomli uchinchi bobida Qoraqo‘ton konining oltin-kumush ma‘danlarining mineral tarkibi bo‘yicha ba‘zi natijalar keltirilgan. Tadqiqot metodologiyasi ma‘dan tanalari namunalaridan tanlangan sayqallangan shliflarni tavsiflashdan iborat edi.

O‘rganilgan sayqallangan shliflarda quyidagi minerallar aniqlangan: pirit, xalkopirit, sfalerit, arsenopirit, antimonit, naumanit, pirrotin, galenit, sof tug‘ma oltin.

Sof tug‘ma oltin ma‘danlardagi asosiy qimmatli mineral hisoblanadi. Kvarsda o‘ta mayda donachalar shaklida uchrashi aniqlandi. Ko‘pincha alohida-alohida, galenit bilan o‘sgan yakka zarralarda uchraydi. Zarralarning shakli tomchisimon, izometrik, qatlamsimon, ksenomorf (2-rasm). Zarralarining kattaligi <0,01-0,02 mm.



1-pirit, 2-arsenopirit, 3-xalkopirit



1-sof oltin, 2-kvars

2-rasm. 51-sonli ma'dan tanasida kvars tarkibidagi sof oltin qo'shimchalarining mikrofotosurati.

Qoraqo‘ton oltin-kumush koni ma‘dan tanalarining mikrozonad tadqiqotlari. Biz geokimyoviy va mineralogik assotsiatsiyalarni taqsimlashda zonallikni o‘rnatdik: 1-konning yuqori gorizontlari nurash qobiqlari va oksidlangan ma‘danlar bilan ifodalangan; 2-o‘rtacha chuqurliklar supergen ma‘danlarining tarqalish zonasi bilan ifodalanadi (ma‘danlarni ikkilamchi sulfid bilan boyish zonasi); 3-pastki qatlamlar - birlamchi oltin-kumush sulfid ma‘danlari uchrash zonasi (2-jadval).

Gipergenez zonalari va oksidlangan ma‘danlar. Tadqiqotlar natijasida Qoraqo‘ton oltin-kumush konining gipergen ma‘danlari mineral tarkibining nihoyatda xilma-xilligi va minerallar hamda mineraloidlar soni bo‘yicha birlamchi ma‘danlardan ustun ekanligi aniqlandi. Shuni ta’kidlash kerakki,

nafaqat silikatlar, alyumosilikatlar, sulfidlar, sulfasollar va karbonatlarning nurash qobig'i va oksidlanish jarayonlari, shuningdek aksessor minerallar: rutil, sirkon, kamyob yer minerallari (monatsit, ksenotim, apatit va boshqalar). Kislrodli birikmalarning, birinchi navbatda, kislrod kislotalarining tuzlari (sulfatlar, arsenatlar, antimonatlar, fosfatlar va silikatlar) va oksidlar va gidroksidlarning gipergenez zonasida keskin ustunligi kuzatildi (3, 4-jadval).

2-jadval

Qoraqo'ton oltin-kumush koni alohida zonalarning mineral tarkibi

| Zona (ma'dan turi) | gorizont | Konning asosiy foydali qazilmalari |
|---|----------|---|
| Oksidlanish zonasi (gipergeren ma'danlar) | Yuqori | Gyotit, gidrogyotit, amorf kremniy oksidi (opal va boshqalar), seritsit, melanterit, yarozit, kuprit, skorodit, mimetezit, bedantit, gips, poligidrat, kermazit, valentenit, tungstt, povellit, sinkit, batlerit, sof tug'ma oltin va kumush, kumush, intermetall birikmalar. |
| Ikkilamchi sulfid boyitish zonasi (Supergen ma'danlari) | O'rta | Xalkozin, kovellin, temorit, akantit, grinokit, tungstt, shtromeyrit, polibazit, seynyayokit, sof tug'ma oltin, kumush va boshqalar. |
| Birlamchi sulfidli ma'danlar zonasi (gipogen ma'danlar) | Pastki | Kvars, pirit, pirrotin, arsenopirit, galenit, sfalerit, xalkopirit, antimonit, tetradrit, matildit, freybergit, gessit, naumanit, argentit, sof tug'ma oltin, kumush va boshqalar. |

3-jadval

Gipergenez zonasining (ma'danlashuvni o'z ichiga olgan jinslar matrisasining nurashi, oksidlanishi) rentgen fazasi va skanerlovchi elektron mikroskop tahliliga ko'ra mineral tarkibi

| Minerallar sinfi | Mineral | Mineral formulasi | Uchrash tezligi |
|------------------|------------|--------------------------------------|-----------------|
| Silikatlar | Tobermorit | $Ca_{10}[(OH)_6Si_{12}O_{31}]_8H_2O$ | + |
| | Opal | $Si_2O \cdot H_2O$ | ++++ |
| | Allamozit | $Pb_3[Si_3O_9]$ | + |
| Alyumosilikatlar | Allofan | $n \cdot Al_2O_3 \cdot SiO_2$ | ++ |
| | Gialofan | $(K,Ba)[(Al,Si)]Si_2O_8$ | ++ |
| | Galluazit | $Al_4[Si_4O_{10}](OH) \cdot 4H_2O$ | ++ |
| Karbonatlar | Aragonit | $CaCO_3$ | ++ |
| Xloridlar | Galit | $NaCl$ | ++ |

4-jadval

Elektron mikroskop ma'lumotlariga ko'ra, gipergenez zonasining mineral tarkibi (oksidlanish va nurash qobig'i)

| Minerallar sinfi | Mineral | Mineral formulasi | Uchrash tezligi |
|---------------------------------------|------------------------|--|-----------------|
| Sof tug'ma | | $Au; Ag; Cu; Zn; Pb; Fe; S; W; C$ | ++ |
| Intermetallar | | $(Cu; Zn); (Cu; Zn; Br); (Au; As); (Fe; Pt); (Ag; Pt); (Au; Fe)$ | ++ |
| Oksidlar va gidroksidlar | Gidrogyotit (limonit) | $Fe(OOH)H_2O$ | ++++ |
| | Mo-sheelit | $Ca[WO_4]$ | + |
| | Povellit | $Ca[MoO_4]$ | + |
| | Tungotit | $WO_2(OH)_2$ | + |
| | Qalay va mis oksidi | $(SnCu)O_2$ | + |
| | Bingeymit | $Pb_{1-2}Sb_{2-1}(O, OH, H_2O)$ | + |
| | Kermezit | Sb_2S_2O | + |
| | Valentenit | Sb_2O_3 | ++ |
| | Arsenolit | As_2O_3 | ++ |
| | Skorodit | $Fe[AsO_4]$ | +++ |
| | Platnerit | PbO_2 | ++ |
| | Kuprit | Cu_2O | + |
| | Tenorit | SuO | + |
| | Glet | PbO | ++ |
| | Platnerit | PbO_2 | + |
| Sinkit | ZnO | + | |
| Gips | $Ca[SO_4] \cdot 2H_2O$ | ++++ | |
| Sulfatlar, arsenatlar va antimonatlar | Gemigidrat | $Ca[SO_4] \cdot 0,5H_2O$ | ++ |
| | Yarozit | $KFe_3[SO_4]_2(OH)_6$ | ++ |
| | Mineral-1 | $Pb[SbO_2 \cdot SO_4Cl]$ | + |
| | Mineral-2 | $ZnPb[SO_4]$ | + |
| | Byodantit | $PbFe[AsO_4, SO_4](OH)_6$ | + |
| | Anglezit | $Pb[SO_4]$ | + |
| | Sangenit | $K_2Ca[SO_4] \cdot H_2O$ | + |

| | | | |
|--|------------|---|----|
| | Melanterit | Fe[SO ₄] | ++ |
| | Kizerit | Mg[SO ₄]*H ₂ O | + |
| | Arkanit | K ₂ [SO ₄] | + |
| | Mimetizit | Pb ₅ (AsO ₄) ₃ Cl | + |
| | Batlerit | Fe[(OH) SO ₄]*2H ₂ O | + |

Kislorod o‘z ichiga olgan birikmalar (sulfatlar, arsenatlar, antimonatlar, fosfatlar, silikatlar, oksid-gidroksid minerallari) sezilarli darajada rivojlanishi bilan bir qatorda, boshqa mineral sinflarning vakillari ham kam tarqalgan - oddiy moddalar (sof tug‘ma elementlar va intermetal birikmalar): Au, Ag, Cu, Zn, Pb, Fe, C, S, W, Cu-Zn, Ag-Pt, Pt-Fe, Au-Ag, Au-Fe, Au-As, (Zn-Cu-Br). Ularning hosil bo‘lish imkoniyati oksidlanish zonasida mineral hosil bo‘lishning kamaytiruvchi sharoitlari (0,60% gacha uglerodli moddalar mavjudligi) va sulfatni kamaytiruvchi bakteriyalar faolligi bo‘lgan hududlar va gorizontlarning mavjudligi bilan bog‘liq.

Sinf bo‘yicha eng keng tarqalgan gipergen minerallari: silikatlar (opal, allofan, gallyuzit), > temir oksidi va gidroksidlari (gyotit, gidrogyotit), > sulfatlar (gips, yarimgidrat), > antimonatlar, > arsenatlar, > karbonatlar, > fosfatlar, > molibdatlar, > volframatlar, > galloidlar, > sof elementlar va intermetall birikmalar. Umuman olganda, birinchi marta 70 dan ortiq gipergen minerallar (Qoraqo‘ton konida, ilgari aniqlanmagan) turli xil minerallar sinflari aniqlandi: silikatlar, alyumosilikatlar, oksidlar va gidroksidlar, sulfatlar, fosfatlar, arsenatlar, antimonatlar, karbonatlar, galloidlar va ularning birikmalari, sof tug‘ma elementlar va intermetallar.

Gipergenez zonasida kislorod o‘z ichiga olgan birikmalarning, birinchi navbatda, kislotalarning tuzlari (sulfatlar, arsenatlar, antimonatlar, fosfatlar va silikatlar) va oksidlar va gidroksidlarning keskin ustunligi aniqlangan. Gipergenez zonasining mineralogiyasi quyidagi ma‘danli minerallar bilan ifodalanadi: gyotit, gidrogyotit, serutsit, melanterit, yarozit, kuprit, skorodit, mimetezit, bedantit, kermezit, valentenit, tungstit, povellit, sinkit, arkanit, batlerit, intermetal birikmalar va sof tug‘ma oltin va kumush. Metall bo‘lmagan minerallarga amorf kremniy oksidi (opal va boshqalar), glet, gips, polugidrat kiradi.

Ikkilamchi sulfidli boyish zonasining mineral tarkibi. Ikkilamchi sulfidli boyish zonasida (supergen ma‘danlari) sulfidlar va ularning analoglari uchta usulda hosil bo‘ladi: 1) sulfid-sulfat tipidagi almashinish reaksiyalari natijasida; 2) sulfatni reduksiya orqali, ya‘ni bakteriyalar ishtirokida SO₄²⁻ dan S²⁻ gacha tiklanishi ; 3) birlamchi gipogen sulfidlarning elektrokimyoviy o‘zaro ta‘siri orqali. Birinchi marta ikkilamchi sulfid bilan boyitish zonasidan 9 ta mineralni aniqlandi (5-jadval).

5-jadval

Ikkilamchi sulfidli boyish zonasining mineral tarkibi
(mikrozond va skanerlovchi elektron mikroskop ma‘lumotlariga ko‘ra)

| Minerallar sinfi | Minerallar | Mineral formulasi | Uchrash tezligi |
|------------------|---------------------|---------------------|-----------------|
| Sulfidlar | Xalkozin | Cu ₂ S | ++ |
| | Digenit | Cu _{2-x} S | ++ |
| | Kovellin | CuS | + |
| | Akantit (turlanish) | Ag ₂ S | ++ |
| | Grinokit | CdS | + |
| | Tungstenit | WS ₂ | + |

| | | | |
|--|-------------|---|---|
| | Shtromeyrit | AgCuS | + |
| | Polibazit | (Ag,Cu) ₁₆ Sb ₂ S ₁₁ | + |
| | Seynyayokit | FeSb ₂ | + |

Ikkilamchi sulfidli boyish zonasida (supergen ma'danlari) birinchi marta to'qqizta mineral xalkozin, digenit, kovellin, akantit, grikonit, tungstenit, shtromeyrit, polibazit, seynyayokit aniqlangan bo'lib, ular Qoraqo'ton koni ma'danlarning birlamchi minerallashuv tarkibini ko'rsatadi.

Birlamchi gipogen ma'danlar zonasi. Geokimyoviy, mineralogik va chuqur analitik tadqiqotlar (mikroskop, spektral, mass-spektrometr, rentgen nurlari difraksiyasi, mikrozon, skanerlovchi elektron mikroskop tahlillari) natijalari gipogen ma'danlarini tashkil etuvchi uchta mahsuldor mineral assotsiatsiyani aniqlashga imkon berdi :

1) oltinga asosiy istiqbolli - pirit-arsenopiritli assotsiatsiya pirit, arsenopirit, lellingit, gorsdorfit, kobaltin, glaukadot, auroarsenit, oltin va kumushning makro va mikro qo'shimchalari bilan namoyon bo'lgan. Minerallarning bu assotsiatsiyasi gidrotermal o'zgargan qamrovchi tog' jinslar zonalarida (gidroslyudalashish, kvarslashish, xloritlashish, karbonatlashish) mavjud;

2) kumush - oltin – ko'pisulfidli mineral assotsiatsiyasi, yetakchi mahsuldor assotsiatsiyadan kamroq tarqalgan. Bu assotsiatsiya jins hosil qiluvchi minerallar va yetakchi sulfidli minerallar - pirit va arsenopiritda boshqa minerallarning tarqoq mikroqo'shimchalari bilan namoyon bo'lgan. Bu mineral assotsiatsiya pirit, xalkopirit, sfalerit, galenit, sulfotuzlar, selenidlar, telluridlar, oltin va kumush minerallari bilan ifodalanadi;

3) kumush – antimonit mahsuldor assotsiatsiyasi (antimonit, tetraedrit, freybergit, polibazit, ramdorit, burnanit, berterit, jemsonit, stefanit, animikit, fyulepit, gudmundit, gersfordit).

Gipergenez jarayonida mahsuldor gipogen birlamchi sulfid, arsenid, antimonid minerallari (pirit, xalkopirit, galenit, sfalerit, arsenopirit, antimonit va boshqalar)ning o'zgarishi sabablarini aniqlash va ularni keyingi texnologik qayta ishlash uchun sanab o'tilgan barcha minerallar mikrozon va skanerlovchi elektron mikroskop (200 dan ortiq o'lchov) yordamida o'rganilgan (6-jadval).

6-jadval

Gipogen birlamchi ma'danlarning mineral tarkibi (mikrozon va skanerlovchi elektron mikroskop ma'lumotlariga ko'ra)

